



TIJORAT BANKLARIDA NAQD PULSIZ OPERATSIYALAR HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Fayzullaeva Saida Asatullaevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimi va unda naqd pulsiz hisob-kitoblarning o'rni va tijorat banklari faoliyatida hisob-kitob operatsiyalari hamda Markaziy bankning banklararo to'lov tizimining uslubiy asoslari nazariy jihatdan yoritilgan.

Shuningdek, tijorat banklarida naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish mexanizmini taxlili, tijorat banklarida to'lovlarni naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish mexanizmi tijorat banklarida naqd pulsiz to'lovlarni hisob-kitoblarini tashkil etishning zamonaviy shakllari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, tijorat banklarida naqd pulsiz hisob-kitoblari, bank tizimi, kredit, pul aylanish holati, plastik kartochkalar va ularning ahamiyati.

Abstract: In this article, the payment system of the Republic of Uzbekistan and the role of cashless payments in it, settlement operations in the activity of commercial banks, and methodological foundations of the interbank payment system of the Central Bank are explained theoretically.

Also, the analysis of the mechanism of organization of non-cash payments in commercial banks, the mechanism of organization of non-cash payments in commercial banks, modern forms of organization of non-cash payments in commercial banks are given.

Key words: commercial banks, cashless settlements in commercial banks, banking system, credit, money circulation situation, plastic cards and their importance.



Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bank tizimlari iqtisodiyotning boshqa tizimlariga nisbatan kuchaytirilgan nazorat va tekshiruv ob'ektlari hisoblanadi, chunki tijorat banklari o'z mijozlari hisoblangan davlat tashkilotlari, tijorat korxonalari va xususiy shaxslarning manfaatlari himoyalaniishi uchun javob beradi. Shu sababli davlat respublika bank tizimining barqarorligi, bu barqarorlik xuquqiy ta'minlanishi va uning rivojlanishidan manfaaddordir.

2023 yilda to'lov tizimlari ishlashining uzluksizligini ta'minlash va infratuzilmasini yaxshilash orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 2023 yilda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 5 480 trln so'mni tashkil etdi. Tizim orqali bir kunlik o'rtacha tranzaksiyalar hajmi 2022 yildagi 16,6 trln so'mdan 22,1 trln so'mgacha ko'paydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining roli yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ko'rsatkichlarga erishishda bank tizimining alohida o'rni bor. Chunki har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri bo'lib moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston bank tizimini isloh qilish xukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning bosh masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018 yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarorida bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to'lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta'sir ko'rsatmoqda va aholining keng qatlamlari uchun ochiq innovasion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarni ilgari surishga to'sqinlik bo'layotganligi keltirib o'tilgan.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.03.2018 yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarori



Ma'lumki, tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan biri bu - hisob-kitob operatsiyalari bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar naqd pulsiz ko'rinishda banklar orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishida naqd pulsiz hisob-kitoblar alohida o'rin egallaydi. Respublika iqtisodiyotida oxirgi yillardagi o'sish sur'atlari, jumladan, YaIM, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalardagi yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda albatta naqd pulsiz hisob-kitoblarning o'z o'ri bor, negaki ushbu tarmolarda barcha hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi. Kelajakda iqtisodiyotdagi o'sish sur'atlari, iqtisodiy aloqalarning ortib borishi pirovard natijada, iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar xajmining yanada oshishiga zamin yaratadi.

Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmining o'sishi iqtisodiyotni moliyalashtirish ko'lami, investitsion faollik hamda Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasida pul bozoridagi operatsiyalar hajmining ortib borishi bilan izohlanadi. 2023 yilda 3 ta tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalar berilishi hisobiga Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari soni 36 taga yetdi.



1-rasm. Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi ²



Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi takomillashtirilib, bank amaliyot kuni oxirida vakillik hisobvarag'ida overdraft (qarzdorlik) shakllangan banklarning Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring va Tezkor to'lovlar tizimidagi ishtiroki kamchilik bartaraf etilguniga qadar cheklanishiga oid norma bilan to'ldirildi.

2023 yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish borasida bank kartalariga asoslangan chakana to'lov tizimlari infratuzilmasini va mavjud infratuzilmadan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Milliy to'lov tizimlari hisoblangan "Humo" va "Uzcard" o'rtasida bankomatlar tarmog'ini o'zaro integratsiya qilish orqali bank kartalari foydalanuvchilari uchun ikkala to'lov tizimi infratuzilmasidagi bankomatlardan muqobil foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, mazkur ikkala to'lov tizimlari o'rtasidagi jarayonlar "host2host" bog'lanish asosida tashkil etilib, naqd pul yechish bo'yicha to'lov operatsiyalari to'liq amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining oshib borayotganligi, o'z navbatida, bank kartalariga bo'lgan talabning ortib borishiga xizmat qilmoqda. Xususan, 2023 yilda muomalaga chiqarilgan bank kartalari soni 46,2 mln donaga yetib, 2022 yilga nisbatan 35 foizga o'sdi. Aholiga respublika va xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi kobeydjing bank kartalari soni 2022 yilga nisbatan 1,7 barobarga oshib, 3,1 mln donaga yetdi. 2023 yilda 429 mingta to'lov terminallari orqali qabul qilingan to'lovlar hajmi 2022 yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib, 254,7 trln so'mni tashkil etdi.

Ma'lumki, tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan biri bu - hisob-kitob operatsiyalari bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar naqd pulsiz ko'rinishda banklar orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishida naqd pulsiz hisob-kitoblar alohida o'rin egallaydi. Respublika iqtisodiyotida oxirgi yillardagi o'sish sur'atlari, jumladan, YaIM, sanoat, qishloq xo'jaligi,



xizmat ko'rsatish va boshqa sohalardagi yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda albatta naqd pulsiz hisob-kitoblarning o'z o'ri bor, negaki ushbu tarmolarda barcha hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi. Kelajakda iqtisodiyotdagi o'sish sur'atlari, iqtisodiy aloqalarning ortib borishi pirovard natijada, iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar xajmining yanada oshishiga zamin yaratadi.

Ta'kidlash kerakki jahonda axborot oqimlarining tezkorlik bilan aylanayotganligi masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish uchun rivojlangan davlatlar tajribasi, xorijiy va mahalliy olimlar fikrlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish uchun avvalo, O'zbekiston bank tizimida ushbu xizmatlarni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim. Kelgusida esa bank tizimini yanada rivojlantirishga raqamli bank sohasidagi innovatsiyalar, ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish va masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarini takomillashtirish talab etiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasi konsepsiyasida O'zbekistonda to'lov tizimini rivojlantirishni ikki davrga ajratgan bo'lib, birinchi davrni 2020 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan va unda bank xizmatlarini ko'rsatuvchi ilovalar yaratilishi, mijozlarni yagona to'lov platformaga ulash, ushbu to'lov platformasida mijozlarni qo'llab-quvvatlash servisini tashkil etish, kardrider va mobil POS terminallar to'lov tizimiga joriy qilish, R2R hisob-kitoblarini yuritish kabi vazifalar belgilab olingan. Ikkinchi davr esa 2025 yilga bo'lgan davrni o'z ichiga olgan va unda tovarlarni hisobga olish va sotish portali, tranzaksiyalar boshqaruvi tizimi, mobil-banking kriptografik identifikatorlari, turli xizmatlarni banklarning raqamli platformalariga integratsiyalash, B2B, B2C tezkor o'tkazmalarini joriy qilish, ochiq dasturlarni dasturlash interfeysi, bank biznesida masofadan identifikatsiya qilish, sun'iy intellekt va avtomatlashgan mashinalarni o'rganish asosida bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim qilish imkoniyatlari yaratilishi nazarda tutilgan.

Umuman olganda, tijorat banklarida yuqorida keltirilgan masalalarni ijobiy hal etilishi,



amalda bajarilishi naqd pulsiz hisob-kitoblarni tezlashtiradi, naqd pullarning bankdan tashqarida aylanishini qisqartiradi, pul barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi, bularning barchasi respublika iqtisodiyotini mustahkamlanishiga yordam beradi.

Kelgusida ham iqtisodiyotdagi to'lov va hisob-kitoblarning asosiy qismiga, ya'ni naqdsiz shaklda amalga oshiriladigan operatsiyalarga xizmat qiluvchi elektron to'lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan to'lov xizmatlari va mahsulotlarini keng joriy qilish orqali aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga to'lovlarni amalga oshirish borasida qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ishlar davom ettirilsa maqsadga muvoffiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoev. "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi – stat.uz
 3. 3.T. Mamadiyarov. raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyusion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil. 9-17 b.
 4. Ablyazov T., Asaul V. On competitive potential of organization under conditions of new industrial base formation // SHS Web of Conferences. 2018. Vol. 44. 00003.
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari. www.cbu.uz